

**O'ZBEKISTONDA ZAMONAVIY HAYKALTOROSHLIKNING MUHUM  
AHAMIYATI****Yusupova Shoxista Alimjanovna**

Guliston davlat pedagogika instituti,

“Tarix va san’atshunoslik” kafedrasi katta o‘qituvchisi

32-23 guruh talabasi **Xudoyberdiyeva Rayxona Xayrullo qizi**Email:[yusupovashoxista32@gmail.com](mailto:yusupovashoxista32@gmail.com)

Tel:+998 99 903 02 86

**Anatatsiya:** O‘zbekistonda yangi ma’naviy yo‘nalishlarning o‘ziga xosligi, zamonaviy san’atning shakllanishi, haykaltoroshlikning asosiy turlari, haykaltaroshlikga xos uslub (yo‘nish, ishlov berish, yumshoq loydan shakllar yasash) bilan o‘z xissiyoti, kechinmalarini tasvirlash haqida. Ushbu san’at sirlarini o‘rganishning bosqichilari. O‘lkamiz hududidagi zamonaviy ijodkor haykaltorosh Damir Ro‘ziboev faoliyati qisman yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Haykaltaroshlik, relief, barelef, gorelef, san’at, kompozitsiya, tors, byust, haykal, dekorativ, mahobatli.

**Аннотация:**Речь идет об уникальности новых духовных направлений в Узбекистане, становлении современного искусства, основных видах скульптуры, об описании собственного характера и переживаниях со стилем, специфичным для скульптуры (токарная обработка, обработка, изготовление форм из мягкой глины). Этапы познания секретов этого искусства. Частично освещена деятельность современного скульптора Дамира Розибоеva на территории нашей страны.

**Ключевые слова:** Скульптура, рельеф, барельеф, горельеф, художественная, композиция, торс, бюст, скульптура, декоративная, величественная.

**Annotation:**We are talking about the uniqueness of new spiritual directions in Uzbekistan, the formation of modern art, the main types of sculpture, the description of one’s own character and experiences with a style specific to sculpture (turning, processing, making forms from soft clay). Stages of learning the secrets of this art. The activities of the modern sculptor Damir Roziboev in our country are partially covered

**Key words:** Sculpture, relief, bas-relief, high relief, artistic, composition, torso, bust, sculpture, decorative, majestic

Ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar mobaynida yaratilib kelingan g‘oyat beba ho ma’naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo‘lib qolmoqda. Biz ushbu ma’naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o‘zlikni anglashni o‘sishidan, xalqning ma’naviy sarchashmalariga, uning ildiziga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz. Biroq bugungi kunda zamon talabidan kelib chiqib, ushbu yuqorida gi ajdodlar merosini avaylagan tarzga zamonaviy ko‘rinishga yuzlanamiz.

“Zamonaviy san’at” terminiga juda ko‘p duch kelmoqdamiz. Xo‘sh, zamonaviy san’at o‘zi nima? Ayni damda aktual bo‘lgan, jamiyi san’at turlarida yaratilayotgan bugungi siyosi, ishtimoiy, maishiy yutuqlar, kamchilik va muammolarni ochiq va erkin tarzda, istalgan homashyo, materiyal yoki detallarda aks ettirayotga g‘oyaviy mustaqil asarlar zamonaviy san’nat na’munalari deb qabul qilinmoqda.

O‘zbekistonda yangi ma’naviy g‘oyaviy yo‘nalishlarning shakllanishi o‘z navbatida, zamonaviy san’atning barcha sohalariga samarali ta’sir etdi, ijobiy izlanishlar doirasini kengaytirib, badiiy tafakkur rivojini yanada jadallashtirdi. Xalqimizning boy ma’naviyati, turmush tarzi, urf odatlarini chuqr o‘rganish yurtimiz kelajagi bo‘lgan yoshlarni ma’naviy shakllanishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Maktab sharoitida haykaltaroshlikning keng tarqalgan turlaridan biri bu loy yoki plastilin bilan ishslash jarayonidir. Biroq, haykaltaroshlikni o‘rganishda qalamtasvir alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu san’at sirlarini o‘rganishning keyingi bosqichi o‘z samarasini beradi. Albatta, ilm va san’atni o‘rganish ustozlarning mehru mahoratlariga bog‘liqdir.

Haykaltaroshlik - tasviriy san’at turi bo‘lib, borliqni hajmli shakllarda, makonda uch o‘lchamda tasvirlashga asoslanadi. Tasvir ob‘yekti, asosan, inson, shuningdek, hayvonlar, tabiat va narsa-buyumlar ishlanadi. Haykaltaroshlikning ikki asosiy ko‘rinishi bo‘lib, aylanib kuzatish imkonini beruvchi dumaloq haykal va bir tomondan ko‘rishga mo‘ljallangan bo‘rtma tasvir ya’ni relyef turiga bo‘linadi.[Boymetov B.B., 2005.- 11] Relyef bu yuzaga nisbatan bir oz bo‘rttirib ishlanadigan barelyef va tasvir yuzaga nisbatan ancha bo‘rttirib ishlanadigan gorelyefga ajratiladi. Yana biri, nursoya o‘yini hisobiga tasvir ko‘zga tashlanadigan tekis yuzaga ishlanadigan o‘yma ko‘rinish mavjud. Haykaltaroshlikda ijodkor asar yaratish jarayonida nursoya o‘yinidan foydalanish orqali ta’sir kuchini oshirishga erishadi. Ayniqsa, monumental va bezak haykaltaroshlik asarlari uchun bu usul qo‘l keladi. Maydon yoki hiyobonga o‘rnatilgan haykalga ertalabki quyosh nurlari biroz joziba bersa, kechki kun botish paytidan quyosh nurlari boshqacha bir fayz kiritishini kuzatishimiz mumkin. Haykaltaroshlikda inson qiyofasining tashqi ko‘rinishi, sokin yoki harakatdagi holatini aks ettirish bilan birga, haykaltaroshning imkoniyati tugamaydi, asarda ichki kechinmalar, hayajon, g‘amginlik va boshqalar bu qiyofada o‘z ifodasini topadi.

Haykaltaroshlikda monumental muhim tarixiy voqealar va atoqli shaxslar xotirasini abadiylashtirish maqsadida o‘rnatilgan monument, yodgorliklar, haykaltaroshlik ansamblari kiradi. Bu yaratilgan asarlar o‘zida katta mazmunni ifodalab mustaqil ahamiyatga egadir. Haykaltaroshlikning bu turi bevosita muhit, me’moriy inshootlar hamda tabiat bilan uyg‘un bo‘lishi lozim, bu unga yanada ulug‘vorlik va ta’sirchanlik baxsh etadi. Monumental haykaltaroshlikka xos bo‘lgan xislatlardan biri bu qahramonlarni ko‘tarinki ruhda tasvirlashdir. Monumental haykaltaroshlik asarlari uzoqdan ko‘rishga mo‘ljallanganligi uchun, katta ya’ni yaxlit shakllardan yasaladi. Bunda inson yuzidagi mayda unsurlar, kiyimdagisi buklanishlar va mayda qismlar ko‘rsatilmasligi mumkin. Bezak haykaltaroshlikka istirohat bog‘lari, xiyobonlar, ko‘cha, shuningdek, me’moriy binolarning devorlarini bezash uchun ishlanadigan turli bezak haykallar tashkil topadi. Yaratilgan asarlarda ramziy obrazlar, hayvonlar shakli keng ishlatiladi. Binolarning devorlariga ishlanadigan bo‘rtma tasvirlar, amaliy san’at buyumlari yuzasiga ishlanadigan bezaklar, panjara, favvora, badiiy darvozalar haykaltaroshlikning ko‘rinishi hisoblanadi. Dastgoh haykaltaroshligi esa mustaqil mazmunga ega bo‘lib, san’atning boshqa turlariga tobe bo‘lmasligi asarlari hisoblanadi. Ko‘rgazmalar, muzey xonalariga va uylarning

interyeriga qo'yishda foydalaniladi. Bu tur asarlarda voqelik o'zining butun borlig'i bilan aks ettiriladi. Inson ruhiyatidagi nozik o'zgarishlar, uning ichki kechinmalari, kayfiyatini ochib berish imkoniyati ko'rsatib beradi.

Dastgoh haykaltaroshlik asarlari tors, byust, haykal, haykalcha koloss, janrli haykal va boshqa ko'rinishida aks ettiriladi. Kichik shakllar haykaltaroshda o'z xarakteriga ko'ra amaliy bezak san'atiga yaqin ko'rinishida tasvirlanadi. Bunga, stol ustiga yoki sovg'aga berib qo'yiladigan sopol, chinni va boshqa xom ashyolardan ishlanadigan haykallar misol bo'lishi mumkin.

Hozirgi kunda talab va takliflar kundan-kunga ko'payib bormoqda, insonlarning san'atga bo'lgan qiziqishlari nafaqat rel'efda balki har xil manzaralar, kompazitsiyalarga ham talablar ko'payib bormoqda. Haykaltarosh mahorati, to'g'ri topilgan harakat, yuzdag'i mimik holat asarning ta'sirli bo'lishida muhim o'r'in tutadi. Haykaltaroshlik asarlari uchun tosh, granit, bronza, marmar, yog'och, metall, sement, gips kabi turli materiallar ishlatiladi. Tanlangan xomshyo uning rangini va sifatini belgilaydi. Xalq haykaltaroshligida ishlangan haykallar bo'yash hollari uchraydi. Haykaltaroshlik asarlari yaratishda yumshoq moddalar, qattiq moddalardan kesib yoki o'ymakorlik bilan keraksiz qismlarini olib tashlash yo'li bilan ishlanadi. Suyuq holatdan qattiq holatga o'tish xususiyatiga ega bo'lgan moddalar qolipga quyilib ishlanadi. Haykaltaroshlik asarlari tayyorlashda keramika maxsus loy navlaridan foydalanib, shakl bo'yama naqsh yoki rangli sir bilan qoplanadi va maxsus pechlarga qo'yib pishiriladi. Haykaltaroshlik mashg'ulotlarida ikki xil ish uslubi mayjud bo'lib, ular yaxlit, alohida-alohida loy yoki plastilin bo'laklariga ishlov berish yo'li bilan ishlanadi. Haykaltaroshlikning yana bir turi dekorativ haykaltaroshlik bo'lib, u o'quvchilarda turli dekorativ bezakli releflar va o'ynichoqlar ishlash orqali maxsus bilim hamda malakalar hosil qilishda yordam beradi. Dekorativ haykaltaroshlik ishlov berish usullarining soddaligi va shakllaring oddiyligi o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi.

Xulosa qilib aytganda, qisqa vaqt ichida mustaqillik yillari davomida iqdisodiy-ijtimoiy sohadagi yutuqlari bilan bir qatorda, mafkuraviy-ma'naviy, madaniy sohalarga e'tibor kuchaytirildi. O'zbekiston san'ati zafarli yo'lni bosib o'tdi. Haykaltaroshlik san'atining o'lkamiz hududidagi zamонавија jihatlarini ijodkor Damir Ro'ziboyev faoliyatida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Dastlab rangtasvir va grafika san'ati bilan shug'ullangan. San'atkor ijodida shakl va hajmlarning o'ziga xosligi, harakatlarni tabiiylik bilan tasvirlanishi, tanlangan mavzularning rang-barang va keng qamrovligidan ajralib turadi. Uning bir qancha haykallarida xalqimizning madaniy hayoti va ziyorilar qiyofasini aks ettirgan asarlariga duch kelamiz.

Shuningdek, yuqorida misollar keltirilib o'tilganidek, zamонавија haykaltaroshlik astasekin yangi xususiyatga ega bo'ldi. Zamонавија texnologiyalar va yangi materiallarning paydo bo'lishi haykaltaroshlikning an'anaviy uslublaridan har qanday maxsus mahorati bilan yangicha ko'rinishlar yaratilishiga zamin yaratildi. Bunday innavatsiyon asarlarni yaratilishda tehnika texnologiyalar muhum ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatmoqda. Albatta, bunday o'zgarishlar kelajagimiz ravnaqi uchun muhum omil bo'lib hizmat qiladi deb o'ylaymiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Boymetov B.B. Haykaltaroshlik. Toshkent, 2003.
2. Boymetov B.B., Tolipov M.S. Plastik anatomiya. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, 2005 y.

# INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS

ISSN: 3030-332X Impact factor: 8,293

<https://wordlyknowledge.uz/index.php/IJSR>

Volume 8, issue 2, November 2024

worldly knowledge

*Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.*

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/profile/Worldly-Knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3030-332X>

3. Boymetov B.B. Haykaltaroshlik.(Qayta nashr) Toshkent, 2005 y.
4. B.N. Oripov. Tasviriy san'atni o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi. O'quv-metodik qo'llanma. Toshkent – “ILM ZIYO” – 2013y
5. Oydinov. N. O'zbekiston tasviriy san'atidan lavhalar. Toshkent “O'qituvchi”. 1997 y.